


O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-noyabr)

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami **61 383,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **118,9** %ni tashkil etdi.




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **14 043,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **7,0** % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **2,4** % punktga kamaygan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,9** %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6** % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **129,3** %ni tashkil etgan holda **34 339,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,3 %** punktga kamayib, **21,2 %**ni tashkil etdi va **13 000,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **108,9 %**ni tashkil etgani kuzatildi.





Davlat va nodavlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




○ Nodavlat mulki


○ Davlat mulki

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **3 961,0** mlrd. so'm yoki 2018-yilning yanvar-noyabriga nisbatan **150,1 %** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **57 422,1** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **117,2 %**ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **6,5 %** va **93,5 %**ni tashkil etdi.


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 75,5 %i yoki 46362,0 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 12283,7 mlrd. so'm ishlar bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 87,5 % tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 22668,6 mlrd. so'm, yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,0 % tashkil etdi.




Norasmiy sektor hissasiga 11409,7 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 87,8 % tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2019 yil yanvar-noyabr



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **19,7 %**ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **4,4 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **7,0 %** punktga ko`payib, **51,2 %** ni tashkil etdi.




Norasmiy sektorning ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **2,6 %** punktga kamayib, **29,1 %**ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **44,7 %** ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **7,3 %** punktga ko`paydi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Yirik qurilish pudrat tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **55,1 %** (**4,3 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **0,2 %** ni (**3,0 %** punktga kamayish) tashkil etdi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)



○ Yirik qurilish pudrat tashkilotlari

○ Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga kamaydi va **17,8 %**ni tashkil etdi. Qolgan **82,2 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko`paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-noyabr)


(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilish obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi*	61383,1	44535	8508,7	8339,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2936,1	1947,4	409	579,7
viloyatlar:				
Andijon	3616,6	2665,3	330,6	620,7
Buxoro	3896,2	2665,8	646,1	584,3
Jizzax	2027,3	1563,3	282,3	181,7
Qashqadaryo	4277,3	3174,8	521,3	581,2
Navoiy	3170,4	2252,2	382,4	535,8
Namangan	2925,8	2106,5	263,6	555,7
Samarqand	3910,6	2994,5	389,8	526,3
Surxondaryo	3597,6	2453,2	945,4	199,0
Sirdaryo	1341,7	976,7	228,5	136,5
Toshkent	4058,7	2892,2	527,1	639,4
Farg'ona	3710,9	2794,3	478,5	438,1
Xorazm	2351,6	1865,8	329,8	156,0
Toshkent sh.	14038,3	8659,4	2774,3	2604,6

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-noyabr)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur'ati, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya
O'zbekiston Respublikasi*	61383,1	118,9	46362,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2936,1	123,5	2086,2
viloyatlar:			
Andijon	3616,6	108,6	2472,1
Buxoro	3896,2	117,4	2328,8
Jizzax	2027,3	129,0	1603,1
Qashqadaryo	4277,3	112,3	3116,4
Navoiy	3170,4	132,3	2394,3
Namangan	2925,8	135,6	2149,8
Samarqand	3910,6	121,3	3074,4
Surxondaryo	3597,6	123,7	3046,0
Sirdaryo	1341,7	122,7	897,5
Toshkent	4058,7	135,5	2921,1
Farg'ona	3710,9	117,0	2498,8
Xorazm	2351,6	124,8	1927,8
Toshkent sh.	14038,3	129,8	10321,7

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.

Hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`atlari qayd etilgan qurilish ishlari

Namangan viloyati (135,6 %):

- Namangan shahrining Uychi va Yangiobod ko`chalarida ta`mirlash ishlari olib borilmoqda;
- Viloyat bo`yicha yuqori kuchlanishdagi elektr havo liniyasi qurish ishlari bajarilmoqda.

Toshkent viloyati (135,5 %):

- Toshkent viloyati Qibray tumanidagi namunaviy yo`llarni rekonstruktsiya qilish ishlari;
- Toshkent viloyati Bektemir va Bo`stonliq tumani yo`nalishidagi yo`llarni ta`mirlash ishlari;
- Kollektorlarni ta`mirlash va tiklash ishlari;
- Irrigatsiya tizimi suvi tezligini sunduruvchi inshootlar qurish .

Navoiy viloyati (132,3 %):

- "Ko'kpatas " va "Daugiztau" konlarining og`ir rudalaridan oltin qazib olish texnologiyasini takomillashtirish, "Auminzo-Amantay" oltin ma'danlari koni (5-GMZ) qurilishi (I-II bosqich), "Amudaryo-Zarafshon" suv yo'lining 3-yo`nalishi bo`yicha nasos stansiyasi rekonstruksiyasi;

- "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" M-37 avtomobil yo`lini ta`mirlash;

- Karmana, Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa tumanlarida kanallar, drenajlar va kollektorlar qazish ishlari.

Toshkent shahar (129,8 %):

- Ko'prik va "Yunusobod" metro liniyasi qurilishi, elektr poyezdlar uchun halqa temir yo'l qurilishi, shuningdek, "Angren-Pop" temiryo'l liniyasi atroflarini to'sish;

- Toshkent metropolitenining "Sergeli" liniyasi qurilishi, Mahtumquli

(Taraqqiyot) ko'chalari va Ohangaron yo'li kesishmasida yo'l o'tkazgich qurilishi, yer usti halqa liniyasini qurish ishlari amalga oshirildi;

- "Toshkent City" va "Olmazor City"lar qurilishi;
- Sobiq Toshkent chinni zavodi hududida "Yangi Olmazor" turar-joy majmuasi qurilishi;
- "Oloy" turar-joy binosi qurilishi.
- "Toshkent - Sharqiy" aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aeroporti majmuasi qurilishi;
- "Navro`z" bog`i qurilishi;
- "O`zbekfilm" bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish;
- Xalqaro Islom madaniyati markazi qurilishi.

Jizzax viloyati (129,0 %):

- Namunaviy uy joylarni elektr energiya bilan ta'minlash uchun elektr komunikatsiyalarini qurish ishlari;
- Zafarobod tumanida kollektor drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilish ishlari;
- Paxtakor tumanida "Yur 21" kanalini rekonstruksiya qilish ishlari.


Qoraqalpog'iston Respublikasi (123,5 %):

- Xo`jayli va Qo'ng'iro't tumanlarida kollektorlarini qazish , "Hayranli" va "Hatep" kanallarini rekonstruksiya qilish;
- Ellikqal'a tumanida "KT-1", "K-5", "Akchakul", "KT-3", "K-4", "K-11", "Guliston", "K-1 Sho`rtanbay" kollektorlari, shuningdek, Nukus tumanida "Kerdar" kanalini ta'mirlash-tiklash ishlari bo`yicha katta hajmdagi qurilish ishlari bajarildi;
- Domalak ko'lida kanyon hosil qiluvchi jarayonlarni rivojlanishini oldini olish bo'yicha chora tadbirlar bilan Amudaryo o`zanida suv ketgazish inshootini o`rnatish bilan Maypos ko`li yo`l damba qurilishi;
- Ustyurt tumanida neft va gaz quduqlarini qidiruv va burg'ulash ishlari.



Hududlar bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng kam ulush Jizzax (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,0** %i yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **95,4** %), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,9** % yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **2,2** marta ko`p) va Andijon viloyatlariga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,0** %, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **105,1** %) to`g`ri keldi.

O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 230-80-56